



**MUMTOZ SHE’RIYATDA ISHQNING BADIY TALQINI: POETIK
XUSUSIYATLAR VA MA’NAVIY QIRRALAR**

Sharipova Munira Xamidullaevna
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
msharipova775@gmail.com*

Annotatsiya Ushbu maqola Sharq adabiyotining doimiy va dolzarb mavzularidan biri bo‘lgan ishq mavzusi talqiniga bag‘ishlanadi. Unda shoh va shoir Muhammad Shayboniyxon she’riyatida ishq-muhabbat mavzusining o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Shayboniy devonidagi g‘azallarning aksariyati aynan ishq mavzusiga bag‘ishlangani shoir ijodining muhim jihatini tashkil etishi ta’kidlanadi. Xususan, oshiqlikka xos ruhiy kechinmalarning rang-barang badiiy lavhalardagi ifodalari ko‘rsatib beriladi. Bunda devondagi ayrim she’rlar tahlil qilinib, badiiy obrazlar va tasvir vositalariga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot davomida Shayboniyning oshiq timsolida namoyon bo‘lgan lirik qahramoni aksariyat hollarda shoirning o‘zi ekanligi qayd etiladi. Bundan kelib chiqib, shoir ijodida o‘zining shaxsiy histuyg‘ulari, o‘y-kechinmalari, orzu-armonlari, ishq yo‘lidagi iztiroblari aks etganligi tahlil qilinadi. Shayboniy she’rlaridagi ishqning insoniy va ilohiy jihatlarini ajratib ko‘rsatishga va ularning o‘zaro munosabatini aniqlashga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Shayboniyxon, devon, she’riyat, ishq mavzusi, oshiqlik, lirik qahramon, insoniy muhabbat, ilohiy sevgi, ruhiyat, badiiy tasvir, talqin.

Аннотация Данная статья посвящена интерпретации темы любви, одной из вечных и актуальных тем восточной литературы. В ней раскрываются особенности темы любви в поэзии шаха и поэта Мухаммада Шайбанихана. Подчеркивается, что большинство газелей в диване Шайбани посвящены именно теме любви, и это составляет важную грань творчества поэта. В частности, демонстрируются красочные художественные изображения душевных переживаний, присущих влюбленности. При этом анализируются отдельные стихотворения из дивана, уделяется внимание художественным образам и средствам выразительности. В ходе исследования отмечается, что лирический герой, воплощенный в образе влюбленного Шайбани, в большинстве случаев является самим поэтом. Исходя из этого, анализируется, как в творчестве поэта отражены его личные чувства, мысли, мечты, чаяния, страдания на пути любви. Уделяется внимание выявлению человеческих и божественных аспектов любви в стихах Шайбани и определению их взаимосвязи.

Ключевые слова: Шайбанихан, диван, поэзия, тема любви, влюбленность, лирический герой, человеческая любовь, божественная любовь, духовность, художественное изображение, толкование.

Annotation This article is dedicated to the interpretation of the theme of love, one of the enduring and relevant themes in Eastern literature. It reveals the unique characteristics of the theme of love in the poetry of Shah and poet Muhammad Shaybani Khan. It emphasizes that the majority of ghazals in Shaybani's Divan are dedicated specifically to the theme of love, and this constitutes an important aspect of the poet's work. In particular, it showcases the diverse artistic depictions of the spiritual states inherent to the lover in the poet's works. Certain poems from the Divan are analyzed, with attention paid to the artistic images and descriptive means within them. The study notes that the lyrical hero, manifested in Shaybani's image as a lover, is in most cases the poet himself. Proceeding from this, the article analyzes how the poet's personal feelings, thoughts, dreams, aspirations, and sufferings on the path of love are reflected in his works. Attention is paid to distinguishing the human and divine aspects of love in Shaybani's poems and determining the relationship between them.

Keywords: Shaybani Khan, Divan, poetry, theme of love, being a lover, lyrical hero, human love, divine love, spirituality, artistic depiction, interpretation.

KIRISH. Sharq tamaddunida hukmdor shaxslar nafaqat davlat boshqaruvi va fath ishlari, balki ilm-fan, adabiyot va san'at rivojiga qo‘shtgan hissalari bilan ham alohida ajralib turadi. Xususan, ular inson qalbi va ruhiyatining nafis tuyg‘ulari – muhabbat va ishqni ham yuksak qadrlab, o‘z ijodlarida bu mavzuni alohida talqin etganlar. Shoir va publitsist Miraziz A’zam shunday yozadi: «Sharq hukmdorlarining aksariyati faqat hokimiyat, faqat fath ishlari, xalq va mamlakat obodligi haqida o‘ylab ish yuritganlar, desak ta’rifda nimadir yetishmaganday ko‘rinadi. Ular ilm-fanga, adabiyot va san’atga katta e’tibor bergenlari kabi, oddiy banda sifatida, muhabbatli hayotni ham juda yuksak maqomlarda qadrlaganlar, ishqni, sevgini bilgan ayollar siyemosini mangulashtirish uchun hech narsalarini ayamaganlar».

Shu nuqtai nazardan qaralganda, shayboniyalar sulolasi vakillari, ayniqsa, Muhammad Shayboniyxon (1451–1510) nafaqat yirik davlat arbobi, balki salmoqli adabiy meros qoldirgan shoir sifatida ham e’tirof etiladi. Shayboniyxon o‘z davrida hukmdor va sarkarda bo‘lish bilan birga, ijodkor sifatida ham diqqatga sazovor shaxs edi. Uning she’riyatida ishq mavzusi alohida o‘rin tutib, inson qalbining ifodasi sifatida madh etiladi. U shohona maqomda turib ham sevgi va sadoqatni yuksak baholagan, mahbuba obrazini ideallashtirib, uni nafaqat tashqi go‘zallik, balki ma’naviy nafosat va poklik ramzi sifatida tasvirlagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini adabiyotshunoslik fanida e’tirof etilgan va qo‘llanib kelinayotgan ilmiy tahlil usullarining integratsiyasi tashkil etadi. Xususan, biografik, tarixiy-qiyosiy, tavsiflash metodlari va badiiy matn tahlili usuli yagona metodologik majmua sifatida tadqiqotning vazifalarini hal etishga yo‘naltirilgan.

Biografik metod Shayboniyxon shaxsi, hayoti, faoliyati va dunyoqarashining shakllanish jarayonini o‘rganish orqali shoir ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu metod doirasida Shayboniyning hayotiy tajribasi, ijtimoiy muhit va siyosiy vaziyatning uning shaxsiyatiga, qolaversa, ishq mavzusidagi qarashlariga ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, Shayboniyning shaxsiy kechinmalari, ruhiy izlanishlari, orzu va armonlarining uning she’riyatida qanday aks etgani tahlil qilindi. Bu metod shoirning ichki dunyosini tushunish va ijodini kontekstual jihatdan baholash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shayboniy ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda tarixiy-qiyosiy metod muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu metod doirasida shoirning ishq mavzusidagi g‘azallari XV – XVI asrlardagi adabiy-madaniy muhit, davr adabiyotining asosiy tendensiyalari, boshqa mumtoz shoirlarning bu mavzudagi she’rlari bilan qiyoslangan holda tahlil qilindi. Bu esa Shayboniyning salaflarga munosabatini aniqlash, ijodidagi an’ana va o‘ziga xos jihatlarni ajratib ko‘rsatish imkonini berdi. Tavsiflash metodi tadqiqot ob’ektining asosiy belgilari, xususiyatlari va sifatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan. Ushbu metod doirasida Shayboniyning ishq mavzusidagi she’rlaridagi badiiy obrazlar, tasvir vositalari va lirk qahramonning ruhiy holati tasvirlandi. Badiiy matn tahlili usuli taddiq etilayotgan badiiy asarning mazmuni, g‘oyasi va uslubini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu usul doirasida Shayboniyning ishq haqidagi fikrlarining chuqurligi va murakkabligi, she’rlarining mazmuni, g‘oyasi va badiiy xususiyatlari aniqlandi, poetik obrazlarning ma’nolari ochib berildi. Bu esa shoirning badiiy mahoratini va ijodiy individualligini tushunishga yordam berdi.

Yuqorida keltirilgan metodlarning integratsiyasi Shayboniy ijodida ishq mavzusini har tomonlama chuqur o‘rganish, shoirning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi o‘rnini belgilash, shaxsiyati va ijodiy merosi haqidagi tasavvurlarni boyitish imkonini yaratdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Shayboniy ijodidagi ishq va oshiqlik tasviri Sharq an’anaviy she’riyati, ayniqsa, tasavvufiy va falsafiy qarashlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Uning she’rlarida ishq faqat shaxsiy tuyg‘u sifatida emas, balki borliqni anglash va inson kamolotini belgilaydigan oliv qadriyat sifatida talqin qilinadi. Bu jihatdan uning ijodi Alisher Navoiy she’riyati bilan ma’naviy bog‘liqlikka ega.

Navoiyning mashhur:

Bo ‘lmasa ishq, ikki jahon bo ‘lmasun,

Ikki jahon demaki, jon bo ‘lmasun, –

bayti Shayboniyxon tomonidan:

Bo ‘lmasa jonona ishqil bir zamон,

Hech kerakmas doimo ikki jahon, –

tarzida talqin qilinishi ham shoir hukmdorning ishq tushunchasiga bo‘lgan yuksak munosabatidan darak beradi. Bu esa uning faqatgina siyosiy yetakchi emas, balki nozik qalb sohibi ekanligi va ijodiy mahoratini ham namoyon etadi. Shayboniyxon she’riyatidagi ishq

tasviri uning nafaqat shaxsiy his-tuyg‘ularini, balki davrning umumiy estetik va madaniy mezonlarini ham o‘zida aks ettirgani bilan ahamiyatlidir.

Ma’lumki, Muhammad Shayboniyxon 1501 yilda Zahiriddin Muhammad Boburning opasi Xonzodabegim (1477 – 1544) ga uylangan. Bu nikohdan 1502 yil may oyida Xurramshoh Sulton dunyoga kelgan. Xon aslzoda, nozik tab’, aql-zakovatli Xonzodabeginning o‘ziga nafaqat tan mahram, balki dil mahram ham bo‘lishini orzulagan. Ijodidagi eng sara g‘azallar begim vasfida bitilgan. Garchi ularning oilaviy hayoti ma’lum sabablarga ko‘ra uzoq davom etmagan bo‘lsa-da, shu qisqa turmushdan totli esdalik bo‘lib go‘zal she’riyat qolgan. Ba’zi manbalarda yozilishicha, 1501 yilning avgustida Shayboniyxon va Bobur o‘rtasida tuzilgan sulh bitimi shartiga binoan Xonzodabegim Samarqandda Shayboniyxon nikohiga kirishga majbur bo‘lgan. Aslida, Xonzodabeginday ota tomondan temuriy, ona tomondan chingiziy o‘ktam bir malika xonning muhabbatiga ishonmaganda va moyilligi bo‘lmaganda, unga turmushga chiqmas edi.

Adabiyotshunos olim va tarjimon V.Rahmonov bu borada shunday yozadi: «Shayboniyxon xon edi. Xon tushunchasi XIII – XVI asrlarda shahanshoh degan oliv hukmronlik atamasi edi. Temuriylar amir (bek), Shayboniy xon edi. Xonga turmushga chiqish ko‘plar uchun oliv havas ekanligini unutmeylik».

Albatta, Shayboniy – xon, ammo ayni damda sevgi-muhabbatga mubtalo bechora oshiq. Shayboniy – sulolaboshi, biroq ma’shuqaning muruvvatiga zor gado. Shayboniy – sarkarda, lekin yorning huzurida oddiy fuqaro.

*Bu Shaboniy garchi xon o‘ldi, gadoyingdur sening
Kim, fido aylar senga yuz ming muningdek taxtu toj.*

Sharq shoirlari tantilik bobida ham mashhurlar. Bu haqda hatto rivoyatlar to‘qilgan. Kamtarona umr kechirgan shoir Hofiz Sheroyziy go‘zalning birgina qora xoliga Samarqandu Buxoroni baxsh etishga tayyor turganda, Shayboniyxondek toju taxt sohibi yorga o‘zi qo‘lga kiritgan boyliklardan-da ortiq in’omlar berishga qodirligi tabiiy hol.

Shayboniy devonida Samarqand taxtini egallaganligini, Xonzodabeginiga uylanganligini, o‘zining ayni chog‘dagi masrur kayfiyatini she’riy yo‘l bilan bayon qilishdan oldin izoh tariqasida ixcham nasriy matn o‘rin olgan: «*Camarqandni alg‘anda base Ko‘ksaroyda to‘y qilib, validamni taxtg‘a mindurub, ul majlisda zebo sanamlarni kelturub, o‘g‘lum Muhammad Temur Bahodirni sandalida o‘lturub bu g‘azalni ayttim*». Shoir aytgan g‘azal shunday misralar bilan boshlanadi:

*Ey, menga sajdagahi ul qoshlarine mehrobidur,
Bu ko‘ngul qushin tutarg‘a shul ko‘zung sayyodidur.*

Anglashiladiki, Shayboniyxon Xonzodabeginiga Ko‘ksaroyda shohona to‘y qilib uylangan. Ko‘ksaroy – temuriylar saltanatining Samarqanddagi bosh saroyi, to‘rt qavatli gumbazli bino bo‘lgan. Asosan favorang koshin ishlatilgani uchun Ko‘ksaroy deb nom olgan. 1501 yilda Samarqandni uzil-kesil egallagan vaqtida Ko‘ksaroy hali o‘zining muhtashamligini

yo‘qotmagan edi va tabiiyki, bu va shahardagi barcha saroylarning egasi endi Muhammad Shayboniyxon edi.

*Ul parini Ko ‘ksaroy ichinda har dam ko ‘rgali,
Zulfi anbar, bo ‘yi mushkin vasfida devonidur.*

Bu baytdan bilinadiki, Shayboniyxon o‘zining shar’iy umr yo‘ldoshi go‘zal va oqila Xonzodabegim bilan bog‘langan nikoh rishtasi abadiy bo‘lishini orzu qilgan.

Aksariyat she’rlarda Shayboniyning oshiq timsolida namoyon bo‘lgan lirik qahramoni shoirning o‘zidir. O‘zining his-tuyg‘ulari, o‘y-kechinmalari, orzu-armonlari, ishq yo‘lidagi iztiroblari asarlarida aks etadi. Ma’shuqa ta’rifu tavsifi, visol lazzatiyu hijron hasrati tarannum etilgan bunday g‘azallarda shoir ishqqa sodiq, yorga vafodor chin oshiq timsolida gavdalanadi.

Muhabbatning ming bir qirrasi bor. Har bir ijodkor bu qirralarni o‘zicha talqin qiladi, oshiqlikning ruhiy holatlarini o‘ziga xos tarzda rang-barang lavhalarda ifodalaydi. Muhabbatda turli xil tuyg‘ular uyg‘unlashib ketishi mumkin: quvonch ham, o‘kinch ham, rohat ham, alam ham. Shayboniy ham goh yorning husn-jamolini tasvirlasa, goh visol orzusidan so‘zlaydi, goh hijron azobidan nola chekadi. Latofatli, jozibali, ayni paytda jafokor yor tasviri, dunyoviy muhabbat tarannumi shoir ishqiy lirkasining tub mazmunidir. Ma’shuqa chiroyda tengsiz. Shoir ta’rificha:

*Ul ne yuzi munavvare, lom ikkiyu shom bir,
Ul ne qaddi sanavbare, mor ikkiyu dom bir.*

Mumtoz adabiyotda noziklik va xushbichimlik hamisha go‘zallikning asosiy mezonlaridan biri sifatida kuylanib kelingan. Shayboniy ham ma’shuqaning tashqi qiyofasini tasvirlar ekan, bu sifatlarga e’tibor bermay qo‘ymaydi:

*Belini qil desa bo ‘lur, og ‘zi xud pinhon erur,
Bas, munungdek sifat qilmoq qachon imkon erur, –
yoki:*

*Qilcha dedim belingni, bilinmas miyonasi,
Ag ‘zingga ne deyinki, ko ‘runmas nishonasi.*

Yuqoridagi baytlar «o‘z zamonining malik ul-kalomi» Lutfiyning:

*Nozukluk ichra belicha yo ‘q tori gisuyi,
O‘z haddini bilib, belidin o ‘ltirur quyi, –*

va «O‘z zamonida she’ri atrok orasida ko‘p shuhrat tutgan» Atoiyning:

*Qilni ikki yormishu qilmish azalda bir qalam,
Belingiz tasvirini qilg‘onda naqqoshing, begin, –
kabi baytlarini yodga soladi.*

Shayboniy mamlakat podshohi, mahbuba esa unga o‘xshagan ko‘plab shohlarning shohi:

*Ul parining shohi shohon gar degaylar yeri bor
Kim, Shaboniy podshoh, bo ‘ldi aning devonasi.*

«Shohi shohon» uning boshiga ming bir savdolarni solsa-da, undan voz kechmaydi. Shuning uchun ham sevgilisiga qarab xokisorlik bilan mana bunday iltijo qiladi:

*Qadam yer yuziga qo‘yma, mening ko‘zumga qo‘y, jono
Ki, izzati tanim tufrog‘u tufrog‘im g‘ubor o‘ldi.*

Baytdagi «tanim tufrog‘u tufrog‘im g‘ubor o‘ldi» iborasi majoziy ma’noda qo‘llangan. Bunda shoir ishqning ta’siri ostida o‘zini ruhan zaif va arzimas holga tushib qolganini ifodalamoqda. Ya’ni ishq uning vujudi, tafakkuri, dunyoqarashini o‘zgartirib yuborgan. Ishq ichki va tashqi olamiga shu qadar ta’sir ko‘rsatganki, go‘yo u endi o‘ziga tegishli emasdek, izzat-ikromi tuproqqa, tuprog‘i esa g‘uborga aylanganday. Tasavvufda inson nafsini tarbiyalashi, o‘zini kamtar tutishi, Allohga muhabbatini izhor etishi muhim ahamiyatga ega. Shoirning sevgilisi oldida xokisor bo‘lishi, o‘zini arzimas narsaga tenglashtirishi, tasavvufdagi «fano» tushunchasiga yaqin ma’nolarni ifodalaydi.

Oshiq yoridan umid uzmaydi, undan vafo kutadi. Barcha olam menga dushman bo‘lsa, bo‘lavserin, sen bor bo‘l. Sen menga do‘st bo‘lsang, butun elning dushmanligi hech narsa emas, deydi. Sitamkor yor iltifotsizligi tufayli ayriliq iztirobida o‘rtangan shoir tunning uzunligidan, hajrning uzunligidan zorlanadi va:

*Tufrog‘imni kim mening hijron suyindin aylamish, –
degan xulosaga keladi.*

Devondagi qator g‘azallar zohiran ma’shuqa ta’rif-tavsifiyu oshiq ahvoli bayoniday tuyulsa-da, aksar o‘rinlarda botinan kengroq mazmun kasb etib boradi, diqqatni tortuvchi yangiliklar uchraydi, turmushning achchiq-chuchugini obdan totigan insonning boy hayotiy tajribalari o‘z ifodasini topadi.

*Ey Shaboniy, jon bila sen saqlag‘il ko‘nglung evin,
Bir sevar jonondin o‘zga g‘ayri jonon o‘lmasun, –*

deb yozadi shoir bir g‘azali maqta’sida. Ko‘ngul uyi insonning ichki dunyosi, qalbi, ruhiyati, eng muqaddas tuyg‘u va tushunchalar maskanidir. Uni barcha yomonliklardan muhofaza qilishni maqsad qilgan shoir bu ma’voda faqatgina Alloh yodi, imon-e’tiqod kabilar jo bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Alloh yagona va sevishga loyiq bo‘lgan Zotdir. Shuning uchun murid o‘z ko‘nglini faqat Allohnинг muhabbatini bilan to‘ldirishi, boshqa muhabbatlarga, g‘ayri maqsadlarga, dunyoviy havaslarga berilmasligi kerak. Murid ko‘nglini «ko‘ngil uyi» deb tasavvur qilsak, bu uyni faqat Allohnинг muhabbatini bilan obod qilishi, unga muqaddas maskan sifatida qarashi, uni boshqa g‘arazli niyatlardan toza tutishi kerak.

Shayboniy talqinicha, ishq ahlining boshiga ne turli jabru jafo kelsa-da, barchasini jon bilan qabul qiladi. Har kimki oshiq emas ekan, u riyodan, xudbinlikdan xalos bo‘la olmaydi. Qaysi oshiqniki ohi dardi haddan oshgan ekan, bu muborak darddir. Unga Haqdan inoyat bo‘ladi, ya’ni to‘g‘ri yo‘l topadi va bu yo‘lda yurishda davom etishlikdan keladigan yaxshi oqibatlar bor.

*Benomu nishon bo‘lg‘il, gar oshiq esang, ey yor,
Oshiqlar aro hargiz bonomu nishon bo‘lmas.*

Haqiqiy oshiq ishq-muhabbat haqida hech yerda jar solmaydi. Muhabbat ko‘ngilda bo‘ladi. Mazkur misralar benomu nishon bo‘lishga chorlaydi, zero benomu nishonlik oshiqni teranlikka, ma’naviy kamolotga yetaklaydi. Oshiqning ishqisi kamolga yetgach, u oriflik martabasiga ko‘tariladi, ilohiy ma’rifatdan ogoh bo‘ladi. Orif mavjudotning g‘ayb olamidagi ma’no holatini mavjudot vositasida yoki bevosita idrok qiladi.

Muqayyad bo‘lma, ey zohid, nishonu nom uchun yo‘lda,

Faqirlar yo‘lda borsang, bilki, benomu nishon xushtur.

Shayboniy talqinicha, ishq yo‘li g‘oyat uzun va mashaqqatli. Uning nihoyasini hech kim bilmaydi. Insonni ma’rifat va haqiqatga olib boradigan bu yo‘lda zahmatu qiyinchiliklar, azobu ozorlar shu qadar ko‘pki, ularga dosh berilsagina maqsad va muddaolarga erishish mumkin. Alloh jamoliga musharraf bo‘lish uchun so‘fiylik vodiylarini bosib o‘tish kerak. Inson tabiatidagi nafs, kibr, hirs, qo‘rquv kabi salbiy fe’l-atvor bu yo‘lda unga to‘sinqlik qiladi. Ularni mahv etib vosili Haq bo‘lish mumkin.

Professor Ibrohim Haqqul shunday yozadi: «Tasavvuf ta’limotining markaziy masalasi – Ishq. Bu ta’limotda deyarli hamma muammo va haqiqatga Ishq nigohi bilan qaralib, Ishq kuch-quvvati bilan hal qilinadi. Ammo bu ishq insoniy muhabbatdan boshlanib, ilohiy sevgiga tomon yo‘nalgan va rivoj topgan ishqdir. Shuning uchun ishq tasavvufda: 1) bashariy ishq; 2) ruhoniy ishq; 3) ilohiy ishq, deya uch turga ajratilgan bo‘lsa-da, bular bir-biriga qarshi qo‘yilmagan». Shayboniy ijodida ham ishqning qayd qilingan uch turi bir-biri bilan qorishiq holda qalamga olinadi. Shoir «ahli ishq», «sirri ishq», «ishq asrori», «ishq sirri», «ishq ahli», «ishq yo‘li», «ishq o‘ti», «ishq dardi», «dardi ishq», «daryoyi ishq» kabi atamalarga qayta-qayta murojaat etish orqali ishq masalalarini bayon qilishga intiladi.

Ishq ruhni dunyoviy g‘uborlardan tozalaydi, qalbga bir olov – nur bo‘lib kirib, uni Parvardigor vasliga hidoyat etadi. Ishq qudrat, ma’rifat va haqiqatga oshno etuvchi, kishiga o‘zligini anglash, insoniylik mohiyatini kashf etishga yordam beruvchi kuch. Bu kuch juda ko‘p narsaga qodir:

Kimiyyoyi ishq erur, ishqki bu turfa amal,

Qaro tufroqni bir lahzada altun qiladur.

Mazkur baytda ishqning inson ruhiyati va borliqqa ta’siri ifodalanadi. Ishq xuddi kimyo kabi mo‘jizaviy kuchga ega. U qora tuproqni bir zumda oltinga aylantira oladi. Bundan kelib chiqadiki, ishq insonning moddiy va ma’naviy olamini tubdan o‘zgartirishga qodir. Ishq insonning ichki dunyosini, ruhiyatini poklab, yuksaltirib, qimmatliroq qiladi. «Qaro tufroq» – bu insonning nafsi, dunyoviy istaklari, gunohlari, ma’naviy qashshoqligi ramzi. «Altun» esa pokiza qalb, ma’naviy boylik, ilohiy ma’rifat ramzidir. «Qaro tufroqni bir lahzada altunga aylantirish» – nafsni tarbiyalab, qalbni poklash ma’nosini anglatadi. Baytda faqat insoniy muhabbat emas, balki ilohiy ishq – Yaratganga muhabbat haqida ham so‘z boradi.

Ishq daryosining nihoyasini topmagan va dardu alamlariga ham chora topmagan shoir quyidagi baytda ishqning ulug‘vorligi, uning inson qalbiga ta’siri va oshiqning ojizligini teran ifodalaydi. Ishq sirlarini to‘liq anglash imkondan tashqarida ekanligini ta’kidlaydi:

Daryoi ishqining kezib hargizki poyon topmadim,

Men mubtalo girdobida qoldimki, darmon topmadim.

«Daryoi ishq» iborasi ishqni cheksiz, bepoyon va qudratli bir hodisa sifatida tasvirlaydi.

Daryo – bu hayot, harakat, o‘zgarish ramzi. Ishq daryosi esa inson qalbidagi eng kuchli va murakkab tuyg‘ular oqimini anglatadi. Shoir bu daryoning nihoyasini topa olmasligini ta’kidlab, ishqning sirlarini anglash inson imkoniyatlaridan tashqarida ekanini bildiradi. Ishq insonni o‘zidan kechishga, o‘zini unutishga majbur qiladigan kuch. Oshiq ishq yo‘lida o‘zligini yo‘qotadi, dard va alamlarga duchor bo‘ladi. Ammo shu bilan birga, ishq insonni ma’naviy jihatdan poklaydi, yuksaltiradi.

XULOSA. Muhammad Shayboniy Sharq so‘z san’ati an’alarini davom ettirgan holda ishq mavzusini o‘zining she’riy dunyoqarashining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllantirgan. Shayboniy she’riyatida ishq nafaqat shaxsiy tuyg‘ular ifodasi, balki badiiy ideal sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shoir she’rlarida mahbubaga nisbatan qalbdan chiqqan samimiyy mehr-muhabbat, uning go‘zalligi va kamolotiga bo‘lgan yuksak ehtirom aks etgan. Bu holat Shayboniy ijodini an’anaviy Sharq she’riyatining asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lgan ishq mavzusi bilan chambarchas bog‘laydi. She’rlardagi ishq timsoli bir tomondan real dunyoga va haqiqiy mahbubaga qaratilgan tuyg‘ular ifodasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ma’naviy, irfoniy va sufiylik qarashlarini o‘z ichiga olgan. Uning she’riyatida sevgi ko‘pincha husn va nafosatni yuksak qadrlash, oshiq qalbining yuksak hassosligi va ishqning inson kamolotidagi ahamiyatini ulug‘lash shaklida namoyon bo‘ladi.

Shayboniy she’riyatidagi ishq mavzusi nafaqat an’anaviy ma’noda mahbubaga bo‘lgan muhabbatni ifoda etadi, balki u ijtimoiy va ma’naviy tafakkur ifodasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Uning lirik asarlari, xususan, g‘azal va ruboylari ishqni inson qalbining yuksak tuyg‘usi sifatida ko‘rsatishi bilan birga, hayot va ijodiy ilhom manbai sifatida ham xizmat qiladi. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, Muhammad Shayboniy ijodida ishq mavzusi markaziy o‘rin egallaganini va uning she’riyatini tahlil qilishda ushbu mavzusiz to‘liq tasavvur hosil qilish imkonsiz ekanligini ta’kidlash zarur. Shayboniy she’riyatida ishq oddiy his-tuyg‘u sifatida emas, balki inson kamoloti va ma’naviy yuksalishi timsoli sifatida tasvirlangan.

ADABIYOTLAR

1. Мирализ Аъзам. Буюклар муҳаббати. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2012
2. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Еттинчи том. Xамса. Ҳайратул-аброр. – Тошкент: Фан. 1991
3. Файзиев Т. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Тошкент: Ёзувчи. 1996
4. Рустамий А. Ҳазрат-и Навоиййнинг эътиқоди. – Тошкент: EXTREMUM PRESS. 2010
5. Иброҳим Ҳаққул. Мерос ва моҳият. – Тошкент: Маънавият. 2008
6. Шайбоний кўлёзма девони фотонусхаси
7. <https://uzhurriyat.uz/> 2019 йил 30 октябрь